

IMPORTANT ISSUES OF APPLYING NORMS OF INTERNATIONAL LAW IN NATIONAL COURTS

Sharipov Elbrus Qarshi o'g'li

University World Economy and Diplomacy,

Faculty International Law, Master of International Law Faculty

Annotation

This article describes the practice of applying the norms of international law in national court in the Republic of Uzbekistan

Keywords: norm of international law, universal norms, particle norms, new strategy of new Uzbekistan, United Nations, national research.

**Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llashning dolzARB masalalari
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro huquq magistranti Sharipov
Elbrus Qarshi o'g'li**

Annotatsiya: Mazkur maqola Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash masalalarini O'zbekiston Respublikasidagi amaliyoti haqida

Kalit so'zlar: Xalqaro huquqiy normalar, Universal normalar, Partikulyar normalar, Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

Kirish. Xalqaro huquq normalari asoslarini bilish jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini mamlakatlar ichida balki boshqa chet el davlatlarida ham himoya qilishlari uchun zarurdir. Bu esa xalqaro huquqni o'zlashtirib boorish ayni paytda nafaqat xalqaro munosabatlar bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxasislar, olimlar, huquqni himoya qiluvchi organlar xodimlari, hatto oddiy fuqarolar uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Shu sababli bugungi kunda milliy huquqning xalqaro huquq bilan o'zaro aloqasini yorituvchi yangicha ilmiy-nazariy tadqiqotlarni olib boorish juda muhim sanaladi.

Asosiy qism. Xalqaro huquq normalarini milliy sudlarda qo'llash masalasida borasida mamalakatimiz dastavval harakatlar strategiyasi, endilikda Yangi O'zbekistonning strategiyasi doirasida umumjahon va mintaqaviy, ko'p tomonlama va ikki tomonlama darajalarda xalqaro tashkilotlar va horijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini faol rivojlantirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyunda president farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlangan va izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu milliy strategiyada O'zbekiston

tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mazmuni to'g'risida aholi hamda davlat organlari hodimlarining xabardorligini oshirish belgilangan. Keying asosiy vazifa etib, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro normalar va O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari normalari qo'llash amaliyotini yanada kengaytirish kerakligi belgilangan, Xalqaro huquq normalari haqida gapiradigan bo'lsak xalqaro huquq subyektlarining bitimi asosida tuziladigan rasmiy qoida bo'lib, ushbu subyektlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Shu asnoda xalqaro huquq normalarini negizini shu normani yaratishning yagona usuli hisoblangan subyektlar bitimi ya'ni xalqaro huquq subyektlarining kelishilgan irodasini ifodalash jarayoni tashkil qiladi.

Xalqaro huquq normalarining mazmuni davlatlarga va xalqaro huquqning boshqa subyektlariga tegishli huquq va majburiyatlar majmuyi hisoblanadi. Xalqaro huquq subyektlari o'zaro munosabatga kirishganda, xalqaro huquqiy normalarda belgilangan o'z huquqlaridan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi.

Xalqaro huquq normalarini tasniflashda ularni o'zaro ikki guruhga birir universal normalar bo'lsa, boshqasi esa partikulyarlar. Universal normalar xalqao huquqning barch subyektlari uchun umummajburiy bo'lgan normalar hisoblanadi. Ushbu normalar har qanday huquq subyektlari uchun muhim bo'lgan qoidalari, jumladan har qanday davlatning ichki vakolatiga kiradigan ishlariga aralashish uchun huquq berilmaslik, insonning asosiy huquqlari, qadr – qimmati, erkak va ayollarning teng huquqliligi, katta va kichik millatlar huquqlarining tengligi, shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan masalalar belgilanadi.

Boshqa turdag'i normalar ya'ni partikulyar – cheklangan doiradagi ishtirokchilar uchun harakatda bo'lgan yoki mahalliy normalar qatnashchilarining doirasi cheklangan bo'lib, ular nafaqat qo'shni yoki bir mintaqada joylashgan, balki dunyoning turli nuqtalarida joylashgan ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtaсидаги munosabatlarni tartibga solishi mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda milliy sndlarda xalqaro huquq normalarini milliy sndlarda qo'llash masalalari 2016 yil oktabr oyida sud huquq tizimini isloh qilish boshlanishi bilan yangi bosqichga chiqdi. Bundan tashqari Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida xam, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qarorlarida ham eng muhim masalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu Xalqaro huquq normalarini milliy sndlarmizda qo'llash amaliyoti bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lsada, biroq Xalqaro Tashkilotlar tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistonda davlatni birlashtirishning qoidaligi – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib–intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b
3. Odilqoriyev H.T., O'zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlari/ O'quv qo'llanma. – T .: INNOVATION RIVOJLANISH NASHRIYOIT MATBAA UYI, 2019.
4. Асоксов А.В. Основы коллизионного права. – М.: Инфотропик Медия, 2012. – 352 с
5. Гаврилов В.В Международное частные право. Мю., Юстицинформ. 2001.